



ONA TILI O'QITISHDA TERMINLAR USTIDA ISHLASH MASALASINING AHAMIYATI

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Atiyazov Saparbay Jumamuratovich

Ilmiy rahbar:

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedrası assistenti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08-June 2023 yil

Ma'qullandi: 10-June 2023 yil

Nashr qilindi: 14-June 2023 yil

KEY WORDS

Terminologiya, kasbiy terminlar, ilmiy terminlar, glossary tushunchasi, progressive pedagoglar, zamonaviy pedtexnologiya, zamonaviy ta'lim tushunchasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili darslarida qo'llaniluvchi terminlar ustida ishlash yuzasidan ona tiliga doir terminlar izohi bilan shug'illanish masalasining ahamiyati yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan. Terminlarning kelib chiqishi va qo'llanilishiga ko'ra ilmiy va kasbiy terminlarning farqli jihatlarini aniqlash, maktab o'quvchilarining pedagogik faoliyatini shakllantirishda turli xil qulayliklarga tayanish yuzasidan amaliya tavsiyalar maqola davomida berib borilgan. Shuningdek, maqolada ona tili o'qitish yuzasidan qo'llaniluvchi terminlarning ifodalanishi nuqtai nazaridan o'quvchi-yoshlarga tushunarlik, ijtimoiylik kabi tushunchalar nazariyasining anglashilishi yuzasidan terminlar bilan ishlashish maqsadga muvopfiq deyish mumkin. Ona tili o'qitishda terminlar ustida ishlash masalasining ahamiyati ham manashunda namoyon bo'ladi deyish mumkin.

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarning bilim salohiyatini pedagogic bilim va ko'nikmalar bilan yanada rivojlantirish masalasi o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ona tili o'qitish darslarida o'quvchi yoshlarning pedagogik bilimlarini oshirish yoki tahlil qilishda asosan, turli termin va jumlar bilan ishlashish hodisalari kuzatiladi. Bunda, sasosan, bilim shaklining chuqur yoki mufassil o'rganilishiga ko'ra ham izohlaniladi. Terminlar ma'lum bir soha yoki yo'nalishga xos bo'lib, qolgan kishilar uchun tushunarsiz bo'ladigan bo'lsa demak terminlarning namunaviy tarzda tahlil etilishi va izohlanishi muhim sanaladi. Misol uchun ona tili o'qitish darslarida turli xil terminlar bilan ishlashish kuzatiladi. Shuningdek, glossariy so'zlar bilan darsning mazmunli va sifatli tarzda oshirilib borilishida amaliy jihatdan qo'llanilishi ta'lim tizimini ham rivojlanishiga, qolaversa, barcha o'quvchi yoshlarga ham tushunarli bo'lishi bilan ham izohlaniladi. "Glossary-izohlab(izohli glossary) yoki boshqa tilga tarjima (tarjima glossary) qilib beruvchi glossary qilib beriluvchi, kam qo'llaniluvchi so'z yoki iboralar lug'ati. Glossary alohida nashr etilmay, chet eldan tarjima qilingan asarlar qismi, bobi ketidan yoki chet tili darsliklarida berilgan mashq matnlari ketidan keltiriladi. Ularda o'sha chet tiliga xos matnga kiritilgan so'zlar yoki iboralar ro'yxati keltirilib, izohli ilova qilinadi.

Glossary ko'proq ingliz, fransuz, nems tiliga oid darsliklarda uchraydi. Bundan tashqari ayrim asar yoki turkumga oid glossarylar ham bor. O'tmishda progressive pedagoglar va atoqli mutafakkirlar pedagoglarga muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, ularni o'rganish pedagogika tafakkurining o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga xizmat qiladi".[1] Umumiy qilib olganda, terminlarning qaysi sohaga tegishli ekanligini izohlash masalasi yuzasidan amaliy ishlarning olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, terminologiya sohasida pedagogik sohasiga oid terminlar bilan ifodalanish hodisalari ham mavjudlikni keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra terminlar asosan ikki turga bo'linadi. Ular:

1. Kasbiy terminlar;
2. Ilmiy terminlar.

Shunga ko'ra, terminlar bilan ishlashishda ularning izohi bilan ham maxsus tarzda shug'illanish lozim. Shuning uchun pedagogik faoliyat yurituchi kishilar dars faoliyati davomida termin so'zlarning izohi bilan ishlashish lozim. Maktab ta'limida bu borada qo'llaniluvchi tajribalar ham mavjud bo'lib, mavzuga doir materiallar tarqatilganda termin so'zlar izohini unutmaslik, ularning dars davomida kalit so'z sifatida ishlatilishiga qat'iy e'tibor berish lozim. Shuning uchun ham terminlarning kasbiy yoki ilmiy ekanligi nutqai nazaridan baholaydigan bo'lsak ularning izohi bilan shug'illanish lozim ekanligini unutmaslik lozim. Maktab o'qituvchilarining pedagogik faoliyati aksariyat hollarda tushunarlik darajasini oshirishda maxsus terminlar uchun daftarlar bilan ishlashish texnologiyasidan ham unumli foydalanadilar.

"Pedagog kadrlarning an'anaviy usuldagi darslardan voz kechilmaganliklari. Bu muammoni istagan ta'lim muassasasida uchratishimiz mumkin. O'qituvchilar hali hamon ko'chirib yozish, mashq bajarish, savolga javob berish kabi usullardan foydalangan holda dars o'tmoqdalar. Ko'pchilik o'qituvchilar kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilishmaganligi yoki maktablarda darsni zamonaviy usulda o'tishning iloji yo'qligi uchun ham an'anaviy usullardan foydalanishmoqdalar. Sinflarda o'qituvchilar sonining ko'pligi ham an'anaviy usulning umrini uzaytirmoqda. Bir xil vazifa bajaradigan, har darsda savolga javobni kitobdan bir amallab o'qib beradigan, mashqni ko'chirib kelganligi uchun baho oladigan o'qituvchilarning soni ortib bormoqda. O'qituvchilarni darslarga qiziqitira olmay qoldik so'nggi yillarda. O'qituvchilarni darsga jalb qilish uchun ham zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanishimiz kerakligi bugungi kun ta'lim tizimimizning asosiy vazifalaridan biri sanaladi".[2] Haqiqatdan ham, bugungi kunda terminlar bilan ishlash, ularning tushunarli bo'lishida maxsus misollar keltirish pedagogik faoliyatning opziga xos belgisi bo'lib hisoblanadi. Ona tili o'qitishda o'qituvchi-yoshlarning o'zlashtirish qobiliyati va saviyasiga qarab ularga darslarning, usul va metodlarning rejalashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Haqiqatdan ham shunday, bunga sabab, ona tili sohasidan yiroq bo'lgan kishining ushbu fan doirasida qo'llaniluvchi termin va izohlardan mutlaqo bexabar bo'lishi tushunarsiz holat va vaziyatlarni yuzaga kelishi bilan xarakterlidir. O'qituvchining pedagogik mahorati dars tizimini namunali rejalashtirishida hamda o'tilayotgan mavzu ko'lamining qamrov darajasi bilan ham izohlaniladi. Shunga ko'ra, ona tili o'qitishda terminlar ustida ishlash masalasining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi. Ular:

- o'qituvchilarga qo'shimcha axborot berish;
- dars sifatini oshirish yuzasidan;
- ilmiylikni oshirish maqsadida;

- ushbu soha yuzasidan tadqiq ishlarni amalga oshirish;
- o'quvchilarda ushbu fanga bo'lgan qiziqishni orttirish;
- opquvchilarda tushunarsizlik holatlarini oldini olish;
- o'quv-uslubiy dars prinsplariga qat'iy tarzda amal qilish

Yuqorida qayd etilganlardan shu tushuniladiki, ona tili darslarining mazmunli va sifatli tashkil etilishida terminlar bilan ishlashish masalasining ahamiyati va o'rni katta ekanligi bilan izohlaniladi. Ona tili o'qitishda terminlar ustida ishlash masalasining ahamiyati ham ushbu holatlar bilan izohlaniladi deyish mumkin. Termin so'zlar kundalik hayot, yoki ishtimoiy faoliyatda uchraydigan so'z shakllari va ular ifodalaydigan ma'nolardan farqlilik tamoyillariga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. "Sodda terminlar. Sodda terminlar ot turkumiga mansub bo'lib, bir o'zak va shakliyma'noviy yaxlitlikka ega bo'ladi. Masalan: ot, sifat, son, ega, bog'lovchi, nutq, omonim, sinonim, metafora, uslubiyat, harf, matn, gap, vergul, nuqta va b. Sodda terminlar derivatsion xususiyatlariga ko'ra sodda tub terminlar va sodda yasama terminlarga bo'linadi: – sodda tub terminlar: til, nutq, urg'u, termin, lug'at, asos, fe'l, ravish, kesim, ega, hol, tire, iqtibos, kinoya, sinekdoxa, me'yor, nisbat, paronim, bo'g'in va h.k. – sodda yasama terminlar: tilshunoslik, lug'atshunoslik, taklifnoma, tabriknoma, ifodalilik, uslubiyat, sifatdosh, ravishdosh, to'plam, yozuv, turlanish kabi. Qo'shma terminlar. Bunday terminlar birdan ortiq o'zak birikuvidan iborat qo'shma so'zlar hisoblanadi. Ona tili darsliklaridagi lingvistik terminlarning ushbu ko'rinishi faqat o'zlashgan qatlamga tegishli bo'lib, ularga o'zbek tilida tub termin sifatida qaraladi: leksikologiya, leksikografiya, orfoepiya, orfografiya

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kurboniyozov Gulmirza, Jalilov Sadaddin. Amaliy o'zbek tili. Nukus "Nur-Turan-Print" 2023
2. Shayxislamov Nursultan. Ona tili o'qitishning muammolari. "Science and Education" Scientific Journal – 2020
3. Abdisalomova Shahlo Abdimurod qizi. Tilshunoslik terminlarining shakily strukturasi